



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YINGA ASOSLANGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNING SAMARADORLIGI

Rajabova Kamola Xayrullayevna

Qaravulbozor tumani 2-son DMTT direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinga asoslangan ta'limni tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari va amaliy jihatlari, o'yin maktabgacha yosh davrining yetakchi faoliyati sifatida bolaning kognitiv, ijtimoiy-hissiy va kommunikativ rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim pedagogik mexanizm ekanligi, shuningdek, o'yinga asoslangan ta'limning tarkibiy komponentlari, pedagogik fasilitatsiya tamoyillari va rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish masalalari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, o'yinga asoslangan ta'lim, pedagogik jarayon, rivojlantiruvchi muhit, kompetensiyaviy yondashuv, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, integrativ ta'lim.

Respublikamizda bugungi kunda zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi global miqyosda shiddatli rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Maktabgacha ta'limda ta'limiy jarayonlarni yanada takomillashtirish, maktabgacha yosh davrida bola shaxsining intellektual, ijtimoiy-hissiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan, o'yinga asoslangan ta'limiy faoliyatning nazariy-metodologik poydevorini takomillashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Maktabgacha yosh davri muhim davr sanalib, mazkur davrda bilish jarayonlari, nutq, tafakkur, tanqidiy fikrlash qobiliyati, tasavvur hamda ijtimoiy rollarni egallash mexanizmlari shakllanadi. Lev Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasida o'yin bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytiruvchi asosiy faoliyat turi sifatida talqin etiladi. Unga ko'ra, o'yin jarayonida bola real rivojlanish darajasidan yuqoriroq psixologik funksiyalarni namoyon etadi va hayotiy tajribalarni, ya'ni, ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi.

O'yinga asoslangan ta'limning ilmiy asoslari faoliyat nazariyasi hamda tajribaviy o'rganish paradigmalari bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur yondashuvga ko'ra, bilim tayyor shaklda uzatilmaydi, balki bolaning faol ishtiroki, muammoli vaziyatlarni hal etishi, rolli va syujetli o'yinlarda qatnashishi orqali quriladi. Shu sababli o'yin maktabgacha ta'limda nafaqat didaktik vosita, balki rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning tizimli mexanizmi sifatida qoraladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalarini ilmiy asosda tashkil etish zarurati bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos ta'lim muhitini yaratish lozim. Ikkinchidan, kompetensiyaviy yondashuv asosida erta shakllantirish va uchinchidan, innovatsion metodlardan samarali foydalanishni anglagan holda ta'limiy faoliyatni tashkil etish muhim ahamiyatlidir. O'yinga



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

asoslangan ta'lim esa kognitiv faollikni oshirish, bolani qo'llab-quvvatlash hamda mustaqil, erkin fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinga asoslangan ta'limni tashkil etish masalasi nafaqat metodik, balki chuqur psixologik-pedagogik va ijtimoiy-falsafiy asosga ega ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinga asoslangan ta'limni tashkil etish zamonaviy pedagogika va rivojlanish psixologiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ilmiy-nazariy jihatdan o'yin maktabgacha yosh davrining yetakchi faoliyati bo'lib, u orqali bola atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy tajribani egallaydi va shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan o'yin jarayonida bilish jarayonlari - idrok, xotira, tafakkur, tasavvur va nutq jadal rivojlanadi.

O'yin orqali tashkil etilgan ta'lim jarayonida didaktik mazmun integrativ xarakter kasb etadi - nutq rivoji, elementar matematik tasavvurlar, tabiatshunoslik bilimlari va ijodiy faoliyat yagona syujet yoki rolli vaziyat doirasida uyg'unlashadi. Natijada bola bilimni fragmentar emas, balki tizimli ravishda o'zlashtiradi.

Xalqaro tajribalar o'yinga asoslangan ta'limning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Ayniqsa Korea maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlar integrativ va o'yin markazli modelga asoslanadi. Korea maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatlarni tashkil etishda bolalarning tabiiy qiziqishlari, tashabbuskorligi va mustaqil tanloviga tayaniladi. O'yin faoliyati orqali til rivoji, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, estetik did va jismoniy faollik kompleks ravishda shakllantiriladi. Koreya tajribasida pedagog o'yin jarayonining markazida emas, balki uning muvozanatli tashkilotchisi sifatida ishtirok etadi. Bolalar bilan erkin tajribalar uyushtirish, savollar orqali murojaat qilish va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, Koreyada rivojlantiruvchi predmet-makon muhiti va raqamli vositalarning oqilona integratsiyasi muhim ahamiyatlidir. Interaktiv texnologiyalar o'yin faoliyatini boyituvchi omil sifatida qo'llanadi, biroq ular bolaning jonli muloqoti va ijodiy tajribasiga to'siq qo'ymaydi. Ta'lim jarayonining samaradorligi muntazam diagnostika va kuzatuv asosida baholanadi, bunda bolaning akademik natijalaridan ko'ra, uning ijtimoiylashuv darajasi va hissiy barqarorligi ustuvor hisoblanadi.

O'yinga asoslangan ta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. U bolaning tabiiy ehtiyojlari va yosh xususiyatlariga mos holda tashkil etilganligi sababli bolada o'ziga bo'lgan ishonch hamda ichki motivatsiyani rivojlantiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, bolaning keyingi ijtimoiy hamda ta'lim muhitining muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Koreya tajribasi esa o'yinga asoslangan ta'limni tizimli ravishda joriy etish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatuvchi ilmiy-amaliy model sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinga asoslangan ta'limni tashkil etish zamonaviy pedagogik jarayonning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy va



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

amaliy jihatdan asoslangan zaruratdir. O'yinga asoslangan ta'limning samaradorligi uning tizimlilik, integrativlik, yosh xususiyatlariga moslik hamda pedagogik fasilitatsiya tamoyillariga tayanishida namoyon bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoni reproduktiv emas, balki rivojlantiruvchi xarakter kasb etadi. O'yin orqali tashkil etilgan ta'lim boladagi muvaffaqiyatli harakatlar, erkin muloqot eng asosiysi bolaning shaxsiy tajribasini boyitadi.

Xalqaro tajriba, xususan Korea maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinga asoslangan yondashuvning tizimli va davlat miqyosida qo'llanishi yuqori pedagogik natijalarni ta'minlashini ko'rsatadi. Ta'limiy jarayonlarni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar, integratsiyalashgan mazmun va rivojlantiruvchi muhitning uyg'unligi ta'lim samaradorligining asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinga asoslangan ta'limni ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda rivojlantiruvchi muhitni zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. O'yin - bu shunchaki texnologiya yoki metod emas, balki maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlovchi fundamental pedagogik mexanizmdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. M.X. Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik.T.: O'zbekistan faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
2. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: 2013 y. -279 bet.
3. O'.Q. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: 2006 y. -264 bet.
4. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - T.: "Fan va texnologiya". 2019 y. -296 bet.
6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
7. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
8. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.- T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. - 240 bet.
9. B.X. Xodjaev. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: "Sano-standart", 2017 y. -434 bet.
10. Raxmonova Sojida Muxammadovna. "PREPARING THE GRADUATE STUDENTS OF PRIMARY EDUCATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITY". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023. Pages 288-293



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

11. Raxmonova Sojida Muxammadovna. "PRACTICAL FEATURES OF PREPARING PRIMARY EDUCATION STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY" SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM, 2(9), 67-71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8314153>. 31.08.2023 y

12. Рахмонова Сожида Мухаммадовна. "ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. . Innovative research in the modern world: theory and practice, 2(23), 92-94с. 11(39)-son 31.08.2023 y

13. S.M.Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 <https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.

14. S.M. Raxmonova МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал 5/1 2022 y.101-105 bet

15. S.M. Raxmonova BO'LAJAK PEDAGOGLARNI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA O'Z-O'ZINI SHAKLLANTIRISH VA MUKAMMALLASHTIRISHGA O'RGATISH. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал. ¾. 2023 y. 141-146